

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI, UNING YO'NALISHLARI, BOSQICHLARI VA XUSUSIYATLARI

Ulfatov Ozodbek Otabek O'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Bank ishi” fakulteti 2-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: TDIU o'qituvchisi **Rahimova N.J.***

Annotasiya: *Davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish holati, YaIM, eksport va sanoat kabi makroiqtisodiyot ko'rsatkichlaridagi ulushi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *solih siyosati, solih elementlari, konsepsiya, solih siyosati taktikasi, bozor iqtisodiyotining mazmuni, belgilari, uning afzallik va kamchilik tomonlar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport, sanoat.*

Аннотация: *Достижение государственной независимости создало благоприятные условия и широкие возможности для перехода к рыночным отношениям в Узбекистане. В данной статье анализируется состояние развития малого бизнеса и частного предпринимательства, его доля в таких макроэкономических показателях, как ВВП, экспорт и промышленность.*

Ключевые слова: *налоговая политика, налоговые элементы, понятие, тактика налоговой политики, содержание, признаки рыночной экономики, ее преимущества и недостатки, малый бизнес, частное предпринимательство, экспорт, промышленность.*

Abstract: *The achievement of state independence created favorable conditions and wide opportunities for the transition to market relations in Uzbekistan. This article*

analyzes the state of development of small business and private entrepreneurship, its share in macroeconomic indicators such as GDP, export and industry.

Key words: *tax policy, tax elements, concept, tax policy tactics, content, signs of market economy, its advantages and disadvantages, small business, private entrepreneurship, export, industry.*

Kirish. Istiqlol yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi. O'tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o'tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbekiston yo'li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalaridan biri edi. Ma'lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya)ning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan bo'lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumjahon voqelikdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xohish – irodasi emas, balki obektiv zaruratdir. Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar – pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy – ijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo'lidir, ya'ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulchilikning xilma – xilligiga, narx erkinligiga, raqobat kurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir. Faqat bozor munosabatlari zamonidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab sifatli mahsulotlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik

yuritish, to'kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta'minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolat o'rnatish mumkin. Bozor iqtisodiyoti — jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmuidir. Tarixan, bozor iqtisodiyotiga o'tish eng so'nggi navbatda «sotsialistik» mamlakatlar o'tmoqda. Xalqaro tajribada bozor iqtisodiyotiga o'tishning bir qancha modellari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch turga yoki modelga bo'lishimiz mumkin:

1. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining yo'li.
3. Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi mamlakatlari, boshqacha aytganda, «sotsialistik» rivojlanish yo'lidan borgan va hozirda bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan mamlakatlar yo'li.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda davlatlashtirilgan, o'ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan — bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.
2. Bozor infratuzilmasini shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxonalar va muassasalarni yaratish.
3. Mulkchilik va xo'jalik yuritish usullarini privatizatsiyalash.
4. Narx – navoni liberallashtirish, narxlarni yerkin qo'yib yuborish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiylik, masalan, xususiy mulkchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xil bo'lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo'li mavjuddir. Bunda uning xo'jalik tuzilishi va shart – sharoitlari, joylashgan yeri, tabiati va

iqlimi, milliy kelib chiqishi, rasm – rusumlari, an'ana va milliy harakteri hamda boshqa omillar sabab bo'ladi.

Asosiy qism. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari mavjud bo'lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga - erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial – iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Natijada o'ziga xos yo'lni tanlash muhim hisoblanadi. Sobiq tuzumda amal qilgan va markazlashgan ma'muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot o'zining hayotiy emasligini, aholining o'sib boruvchi ehtiyojlarini ta'minlay olmasligini aniq ko'rsatdi. Natijada mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyoti uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va bu yo'lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov boshchilik qildi. Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992-yil 4-yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no – mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilini o'z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993-yilda nashr etilgan «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida asoslab berildi. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb qabul qilindi. O'zbek modelini ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Umuman olganda

o'tgan o'n yil davomida bozor munosabatlarini shakllantirishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko'rinishida ish yuritmoqda. Respublikada jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalaridir. Mulkning tarkibi jihatdan 19,5 mingga yaqini davlat, 105 mingta xususiy, 3,4 mingdan ortiq chet el investorlari ishtirokida, shundan 442 qo'shma korxonalar, 3,5 mingga yaqin aksionerlik jamiyati, 1,2 mingga yaqin jamoa va 34 mingdan ortiq boshqa korxonalaridir. Iqtisodiy islohotlarning borishida o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda 180 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari va 200 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko'rsatmoqda. Yangi parlamentning ko'shma Majlisida (2005-yil 28.01.) I.Karimov 2005-yilning iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishni chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat. 2007-yil yarmida kichik biznesni 45%ga yetkazish, hozir 36%ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich ilg'or mamlakatlarda 60-65% ni tashkil etadi. Fermer xo'jalikni rivojlantirish uchun shirkat xo'jalikning 2005-2007 yillarda 1100 tasini, 2005-yilda esa 406 tasini qayta tashkil etish kerak. Fermerlarga yer ajratishda mahalliychilik, urug'-aymoqchilikka, poraxo'rlikka yo'l qo'ymaslik vazifasini qo'ydi. 2004-yilda qishloq xo'jaligida yalpi o'sish 10%ni tashkil qildi. Shu jumladan boshqoli don ekinlari besh million tonnaga yaqin, paxta 3,5 mln tonani tashkil qildi. Kichik va o'rta biznes iste'mol mollar manbayi daromad va foyda manbayi bo'lib, yangi ish o'rnini yaratadi. Kichik va o'rta biznes Yaponiyada 80%, Yevropa Ittifoqida 67%, Germaniyada 65%, AQShda 52% ni tashkil qiladi. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, korxonalarining raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o'z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo'lish imkonini beruvchi korxonalarining miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to'sqinlik qilishi mumkin. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub'ektlari uchun

yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko'plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o'z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi borasida bir qator me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'yektlari turli chegaralarining amal qilish bosqichlari

Bosqich	Yillar	Tegishli me'yoriy hujjat
I	1992- 1995	“O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 26-fevraldagi 85- son qaroriga 2-sonli ilova)
II	1995- 1998	O'zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi Qonuni(1995-yil 21-dekabr)
III	1998- 2003	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni (1998-yil 9-aprel)
IV	2003- 2011	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori (2003-yil 11-oktyabr)
V	2011- 2019	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qarori (2013-yil 14-iyun), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi (2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son Farmoni) Qarori (2014-yil 3-iyul), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

		bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni)
VI	2020- davrlar keyingi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2020-yil 19-martdagi PF-5969-son Farmoni), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llabquvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son Farmoni). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "Ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son Qarori)

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta'minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya'ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo'lgan tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;
- aholining joriy daromadlari va jamg'armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko'tarilishiga zamin yaratadi;
- sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag'larining bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin, milliy iqtisodiyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish, o'zini-o'zi ish bilan bandligini ta'minlash, mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish kabilarga erishishni ta'minlaydi. Mahaliy institutlarning samaradorligi rolini oshirish – tadbirkorlarga yangi korxonalar yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga imkoniyat berilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-99-son Qarori// www.lex.uz
3. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007.
4. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2009.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, 176-b
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2007